
Farg'onada Koreys ishlab chiqaruvchilari Sanoat Texnoparki tashkil etiladi

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Farg'onada o'z investitsion loyihasini amalga oshirishni rejalashtirayotgan 15 nafardan iborat koreyalik ishbilarmonlarning katta guruhini qabul qildi.

Viloyat hokimi boshchiligidagi Farg'ona viloyati rasmiylari hamda tadbirkorlaridan iborat delegatsiyaning joriy yil 27-30-mart kunlari Koreya Respublikasiga tashrifi davomida Seulda koreys tadbirkorlari bilan olib borilgan muzokaralar natijasida Farg'ona shahridagi Ekoshahar majmuasining tegishli kichik sanoat zonasi hududida "Koreys ishlab chiqaruvchilari Sanoat Texnoparki" tashkil etish hamda qator kompaniyalarning ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirish bo'yicha hamkorlik bitimlari imzolandi.

Bugungi uchrashuvda ushbu kompaniyalar rahbarlari hamda boshqa qator sarmoyadorlar ishtirok etdilar.

2023-04-27 11:53:12